

FORS HUDUDIDA SOSONIY IMPERIYASI HUKMRONLIGINING O'RNATILISHI

Mirkomilov Bahtiyor

Jizzax davlat pedagogika universiteti professori

Axmedova Dildora Erkinjon qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Eron hududida Sosoniylar davlatining vujudga kelishi, sosoniy hukmdorlar va ular tarixi bilan bog'liq bo'lgan siyosiy voqealar haqida so'z boradi. Bundan tashqari maqolada Sosoniylar davlati madaniy hayotining ayrim jihatlari, xususan din e'tiqodlari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Fors hududi, Ahamoniylar davlati, Ardashir I, Shopur II, Hormozdgon jangi, Xuziston hokimi, Neo-Fors imperiyasi, Xvarra shahri, yahudiy, nasroniy, moniylik, zardushtiylik.

Tarix sahnasiga Sosoniylar imperiyasining kirib kelishi bu bevosita Parfiya podshohligining inqirozga yuz tutishi bilan bog'liq. Sosoniylar Fors hududida 400 yildan ortiq vaqt davomida faoliyat olib borgan bo'lib, xuddi Ahamoniylar davlati singari Fors viloyatida vujudga kelgan. Ular ellinistik madaniyat egalari-Parfiyadan keying Ahamoniylarning vorislari deb bilishgan, shuningdek, Forsning buyukligini tiklash eng oliy vazifamiz deb hisoblaganlar. Imperiyasi hududi Suriyadan shimoli-g'arbiy Hindistongacha cho'zilgan bo'lsada, lekin uning ta'sir doirasi qo'shni hududlarda ham sezilarli darajada bo'lgan[K.Kianush. 1999. 18 b].



Derafsh Kaviani
(davlat bayrog'i)



Simurg
(imperator gerbi)

Sosoniylar imperiyasiga Papakning o'g'li Ardashir I tomonidan asos solingan. Milodiy 224-651-yillar oralig'ida, islomgacha bo'lgan so'nggi fors imperiyasi. Ardashirning ajdodlari Arianaga hukmronlik qilgan. Bobosi Sosan Fors hududiga ko'chib kelgan. Otasi Papak Darabgerd viloyatini noibi sifatida faoliyat olib borgan. 200-yili Papak kurd hukmdori Gochihni ag'darib, o'zini Bazrangidlarning (kurdlarning) yangi hukmdori deb e'lon qiladi. Papak to'ng'ich o'g'li Shopur bilan butun Pars shahri ustidan o'zining hukmronligini o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Ardashir I (milodiy 180-240) 180 yilda Forsning Persi-Polis shahrida tug'ilgan. Ardashir harbiylarcha hayot tarzini yaxshi ko'rgan va jang san'atini yaxshi o'zlashtirgan edi. Otasi vafot etgach, uning merosi kata o'g'li Shopur qo'lida qoladi. Ardashir Shopurga qarshi chiqdi. Ardashir akasiga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, uni hokimiyatdan voz kechishga majbur qildi [Sassanid Empire <https://www.newworldencyclopedia.org>].

Shopurning hayotida baxtsiz hodisa yuz berib, binoning tomi qulaydi va vafot etadi. So'ng g'alayonlar boshlanib ketadi. 208 yilga kelib, Ardashir noroziliklarni bostirdi va o'zini Pars viloyati hukmdori deb e'lon qildi. Hokimiyatni qo'lga kiritgach, hududlarni kengaytirish maqsadida Xurmuz ko'rfazi, Ilom, Isfaxon va Midiya qirg'oqlarini qo'shib oldi. Shuningdek, bu davrda Parfiya va Rim bilan munosabatlari yomonlashib, ichki nizolar ortib boradi. Bu Ardashirga parfiyaliklarning deyarli aralashuvisiz janubda o'z hokimiyatini mustahkamlashga imkon berdi.

Bu kengayish tezda Parfiya hukmdori Artaban IV ning e'tiboriga tushdi. Ardashirning yangi hududlarni bosib olishi Parfiya shohini xavotirga soldi. Artaban IV dastlab Xuziston hokimiga 224 yilda Ardashirga qarshi urush boshlashni buyurdi, ammo janglarda Ardashir g'alaba qozondi. Parfiya hukmdori Artaban IV Ardashirga maktub yo'llab, bu orqali uni kamsitmoqchi bo'ldi. Maktub saroyda fuqarolar ishtirokida o'qib eshtirildi: "Sen o'zingga dushman bo'lib, o'zingni o'limga olib kelding, ey kurdlarning chodirlarida tarbiyalagan kurd. Senga toj kiyishga kim ruxsat berdi?" [Sassanid Empire <https://www.newworldencyclopedia.org>]. Ardashir bu maktubni o'ziga haqorat deb bildi. Ardashirni yo'q qilishga ikkinchi urinish ham samarasiz yakunlandi.

224-yilning 28-aprel Hormozdgon jangida Parfiya shahanshohi Artaban mag'lub bo'ldi. Sosoniylar sulolasi hukmronligi o'rnatdi. Ahamoniylar imperiyasi merosini tiklashga, hududlarni kengaytirishga harakat qildi. Parfiya imperiyasining g'arbiy



viloyatlariga bostirib kirishni davom ettirdi. Forsning mahalliy shahzodalaridan sodiqlikni talab qildi va qo'shni Kirmon, Isfaxon viloyatlari ustidan nazoratni qo'lga kiritdi. Ardashir Eronning qolgan qismini ham bosib olishga harakat qilgan. 224-yilda Ktesifonda Ardashir shahanshoh, "shohlar qiroli" unvonini oldi (yozuvlarda Adhur-Anahid sifatida tilga olinadi)[Mahde Kakiye "Sosoniylar forslar emas, kurdlar edi" 2020 <https://www.kurdistanpost.nu>]. III asr boshlarida Ardasher butun fors, markaziy eron, fors g'arbidagi Xuzistonni o'z xukmronligi ostiga oldi. 226 yili o'zini davlat boshlig'i deb e'lon qildi.

Ardashir I davlatni boshqarishda uchta narsaga alohida ahamiyat bergan: hokimiyatni markazlashtirish, zardushtiylikni davlat dini sifatida o'rnatish va forslarning Rim bilan raqobatiga e'tibor berdi. Bularning barchasi katta islohotlar boshlanishini anglatardi. Ardashir davrida g'arbda Rim va Vizantiya, sharqda kushonlar bilan doimiy raqobat qilgan. Ardashir – Xvarra shahriga (sobiq Gur , hozirgi Firuzobod) asos soldi. Bu shaharni o'zi tashkil etmoqchi bo'lgan davlat markaziga aylantirmoqchi edi. U tor dovonlar, baland tog'lar bilan yaxshi himoyalangan bo'lib, baland dumaloq devor bilan o'ralgan. Shahar Ardashirning kuch-qudrati markaziga aylandi. Buyuk sarkarda va qobiliyatli podshoh ko'plab shaharlarga asos solgan, ayrimlarini qaytadan barpo etgan, kanallar qazdirib, ko'priklar qurishga buyruq bergan. Shahanshoh humkronligi davri tarixidan bir nechda tosh o'ymakorlik namunalari saqlanib qolingan ["Ardashir I " Britannica Ensiklopediya <https://www.britannica.com>].

Fors hududida sososiylar hokimiyati o'rnatilgach, rasmiy ravishda imperiya Eroniylar imperiyasi nomi bilan tanilgan. Bu atama birinchi marta Ardashirning o'g'li va sosoniylar sulolasining keyingi vakillarining buyuk yozuvida tasdiqlangan: "Men Eronlar imperiyasining hukmdoriman"-deyilgan. Davlat boshlig'i "shahanshox" deb atalib, qonunlarga ko'ra, taxt merosiyligida qat'iy tartib bo'lmagan, lekin xukmdor, albatta, Sosoniylar urug'idan bo'lishi shart edi. Sosoniylarning Neo-Fors imperiyasi Pars (Persis) shahrida paydo bo'lgan bo'lib, Fors hududi tashkil topgan ikkinchi yirik imperiya hisoblanadi. Birinchi imperiya sifatida Ahamoniylar imperiyasi tilga olinadi. Islomgacha bo'lgan davrda (651-yilgacha) faoliyat yuritgan bu imperiya, Eron xalqi nazarida o'z sivilizatsiyasining yorqin nuqtasi, eng cho'qqisi bo'lgan. Davlat dini zardushtiylik bo'lsada, imperiya hududida yahudiy, nasroniy, moniylik va mahalliy aholining turli e'tiqodlari



bo'lgan, bu diniy ozchilikning manfaatlari ham himoya qilingan. Sosoniy shahanshohlarning ba'zilar xatto yahudiy va nasroniy ayollarga uylanishgan¹. Xulosa o'rnida bu imperiya islomgacha aniqrog'i, Rashidun davrigacha faoliyat olib borgan. Davlat tamal toshi Ardashir I tomonidan qo'yilgan bo'lib, qadimiy Ahamoniylar imperiyasi kabi ulkan mavqega ega bo'lgan. Zardushtiylik dini ta'limotlarini saqlab qolishga va dinni yoyishga harakat qilishgan. Ular o'zlarining madaniyati, dinlari va hukumatlarini qanday boshqarishlari bilan mashhur edilar. Sosoniylar imperiyasining merosi fors sivilizatsiyasining mustahkamlanishi va boyishida ma'lum darajada o'z hissasini qo'shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.K.Kianush, Art Arena "Asrlar davomida fors san'ati" 1999-yil. 2-qism.
- 2."Ardashir I" Britannica Ensiklopediya <https://www.britannica.com> internet sayti
- 3.Sassanid Empire <https://www.newworldencyclopedia.org>. internet sayti
- 4.Mahde Kakiye "Sosoniylar forslar emas, kurdlar edi" (maqola: 2020-yil 13-yanvarda chiqqan) <https://www.kurdistanpost.nu> internet sayti.

¹ Alonso Konstenla Servantes "Sasanian Empire" (maqola) 2013-yil 17-may. <https://www.worldhistory.org>

